


2022- yilning yanvar-sentabrida Andijon viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabrida Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 37 065,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 9,2 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 114,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Andijon viloyatining qo'shgan hissasi 5,9 % ga yetdi.




**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2021- yil	2022- yil	
I. YAHM, jami	29 746,6	37 065,6	109,2
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	28 930,5	35 946,4	108,9
mahsulotlarga sof soliqlar	816,1	1 119,2	120,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	28 930,5	35 946,4	108,9
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	12 305,4	14 272,3	103,8
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	7 520,2	10 598,0	120,5
sanoat	5 711,2	8 436,7	124,8
qurilish	1 809,0	2 161,3	106,8
xizmatlar	9 104,9	11 076,1	106,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 028,0	2 470,7	107,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 616,0	1 910,0	112,4
boshqa xizmat tarmoqlari	5 460,9	6 695,4	103,6

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 11 304,3 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,0 % ga yuqoridir.

2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,0 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 39,7 % ni, sanoat tarmog'i 23,5 % ni, qurilish 6,0 % ni va xizmatlar sohasi 30,8 % ni tashkil qildi.

2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,3	97,0
mahsulotlarga sof soliqlar	2,7	3,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	42,5	39,7
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	26,0	29,5
sanoat	19,7	23,5
qurilish	6,3	6,0
xizmatlar	31,5	30,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,0	6,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,6	5,3
boshqa xizmat tarmoqlari	18,9	18,6

2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)





● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,8 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 39,7 %), sanoatda – 124,8 % (23,5 %), qurilishda – 106,8 % (6,0 %), xizmatlar sohasida – 106,1 % ni (30,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,8 % (6,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,4 % (5,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,6 % dan (18,6 %) iborat bo'ldi.

2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i – 1,6 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 1,2 f.p.), sanoat tarmog'i – 4,8 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida salbiy 0,3 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 0,7 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 1,8 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 2,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,6 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

2022- yilning yanvar-sentabrida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-sentabrda YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 114,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 118,3 % va xizmatlar sohasida – 114,7 % qayd etildi.

2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 68,6 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-sentabrda – 73,4%).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

2021- yil

73,4 %

2022- yil

68,6 %